

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th July - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

KREDIT XIZMATLARINING ASOSIY TURLARI

Qurbonov Rustam Radjapovich

Termiz muhandislik-texnologiya instituti "Marketing va talabalar amaliyoti"
bo'limi marketologi, Qurilish fakulteti, ijtimoiy-gumanitar fanlari kafedrası
o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada moliya bozorida mavjud bo'lgan kredit xizmatlarining asosiy turlari haqida to'liq ma'lumot berilgan. U shaxsiy kreditlar, kredit kartalar, ipoteka kreditlari, avtokreditlar va biznes kreditlarini qamrab oladi, ularning xususiyatlari, foydalari va xatarlarini o'rganadi. Maqolada, shuningdek, kredit xizmatlari bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilish, foydalanilgan tadqiqot usullarining batafsil tavsifi va natijalarni muhokama qilish, kelajakdagi tadqiqotlar va siyosat bo'yicha tavsiyalar uchun xulosalar va takliflarga olib keladi.

Kalit so'zlar. Kredit xizmatlari, shaxsiy kreditlar, kredit kartalari, ipoteka kreditlari, avtokreditlar, biznes kreditlari, moliya bozori, kredit xavfi, moliyaviy mahsulotlar. Kreditor bu kredit aloqalarining bir tomoni bo'lib, u qarz beradi. Boshqacha aytganda qarz beruvchi yoki real bor bo'lgan narsani vaqtincha foydalanishga berib turuvchi shaxs kreditor bo'la oladi.

Kreditor qarz bera olishi uchun ma'lum mablag'larga ega bo'lishi kerak. Bu mablag'larning manbalari xilma-xil bo'lishi mumkin. Masalan, o'z mablag'lari yoki resurslari, bundan tashqari, boshqalardan vaqtincha, qaytarib berish sharti bilan olingan mablag'lar manba bo'lib xizmat qiladi.

Tijorat banklari kreditorlar vakili sifatida xalq xo'jaligidagi barcha vaqtincha bo'sh mablag'larini kredit ehtiyojlariga jalb qila olishi mumkin.

Kredit munosabatlariga ba'zi xollarda vaqtincha bo'sh bo'lmagan resurslar ham jalb etilishi mumkin, ya'ni kreditor qarz oluvchiga sotilishi lozim bo'lgan tovarlar (moddiy va nomoddiy aktivlar)ni takdim etadi.

Kreditorning qarz mablag'lari bo'yicha munosabati ikki tomonlamadir. Kredit shaklida beriladigan o'z pul mablag'lari kreditorning mulki sifatida saqlanib qoladi. Lekin kreditor tomonidan chetdan jalb qilingan kredit shaklida joylashtiriladigan resurslari mulkdor sifatida egasi, ya'ni axoli, korxonalar, tashkilotlar bo'lib qolaveradi. Shuning sababli banklar kreditlash mexanizmini shunday tashkil



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th July - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

qilishlari kerakki, jalb qilingan mablag'larni xaqiqiy egalari talab qilgan taqdirda, ularni o'z vaqtida qaytarib berish imkoniyati mavjud bo'lishi zarur.

Kreditlar berilishi muddatiga ko'ra uchga bo'linadi:

1. Qisqa muddatli (1 yilga qadar),
2. O'rta muddatli (1 yildan 5 yilgacha),
3. Uzoq muddatli (6 yildan ortiq) kreditga bo'linadi.

Bundan tashqari kreditning tijorat, bank, davlat, iste'mol, xalqaro, ipoteka shakllari bor. Tijorat krediti-bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan beriladi. Bank krediti-jismoniy va yuridik shaxslarga pul shaklida banklar tomonidan beriladi. Davlat krediti-davlatning qarz beruvchi va qarz oluvchi sifatida ishtirokini nazarda tutadi. Davlat qarz beruvchi sifatida bank tizimi orqali byudjetdan tarmoq, hudud, korxonalarini kredit ajratib moliyalashtiradi. Iste'mol krediti-aholiga iste'mol tovarlari, xizmatlarni nasiyaga sotish, uy-joy qurilishi harajatlari uchun, o'zaro yordam kassasi qarzlari va boshqa ko'rinishlarda beriladi. Xalqaro kredit — muddatli, qaytimli va foiz to'lash shartlari bilan bir mamlakatdagi kreditor tomonidan ikkinchi mamlakatdagi qarz oluvchiga pul yoki tovar shaklida beriladigan qarz hisoblanadi, shuningdek, chet el korxonalarini aksiyalari va qimmatli qog'ozlaridan foyda olish maqsadlarida sarmoya kiritish.

Iqtisodiyotda kredit muhim vazifalarni bajaradi, ular orasida moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash vazifasi asosiy o'rinda turadi. Kredit yordamida mablag'larni bir tarmoqdan ikkinchisiga, bir mulkdordan boshqasiga oqib o'tishi ta'minlaydi. Shu bilan ishlab chiqarishni kengaytirish, iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirish, mablag'larni kapital qo'yishning eng foydali va istiqbolli yo'nalishlarida jamlash imkoni yuzaga keladi. Tijorat banklari tomonidan kredit resurslarini tartibga solish mexanizmlari yordamida pul aylanmasi kengaytiriladi va aksincha qisqartirilishi mumkin, bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

Kredit munosabatlarining barqaror bo'lishi uchun mamlakatda kredit siyosati olib boriladi. Kredit siyosati tarkibida banklarning foiz siyosati, ajratilayotgan kreditlarning yo'nalishlari, kredit qaytarilishini ta'minlash, uning samaradorligini oshirish, imtiyozlar, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarning oldini olish chora-tadbirlari muhim rol o'ynaydi. Mamlakat iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarini rivojlantirishga tijorat banklarining kredit siyosatida muhim e'tibor qaratilgan. Markaziy bankning markazlashtirilgan kreditlari mamlakat mustaqilligini mustahkamlashga yo'naltirilgan yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etishga



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th July - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ajratilmoqda. Shuningdek, mamlakat tijorat banklari ham yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga kreditlar ajratish bilan birga kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashni ham amalga oshirmoqda. Imtiyozli shartlarda ajratilayotgan kreditlar va mikrokreditlar shular jumlasidandir.

Kredit tizimi: Markaziy bank, tijorat banklari, kredit uyushmalari va chet el banklari filiallari va vakolatxonalari. Markaziy bank kredit tizimida alohida o'rin tutadi va u emissiya maqomiga egadir. Mamlakatda kredit tizimi faoliyati "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi¹, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi² qonunlari bilan tartibga solinadi.

Ma'lumki, iqtisodiyotning rivojlanishi tarixida kreditning ikki-pul va tovar shakllaridan foydalanib kelingan. Hozirgi vaqtda mamlakat ichki aylanmasida pul kreditidan kengroq foydalanib, u bank, tijorat, davlat, iste'mol, xalqaro va xo'jaliklararo kredit shakllarini oladi.

❖ Bank krediti — kreditning asosiy va etakchi shakli sifatida chiqadi. U pul egalari — banklar va maxsus kredit muassasalari tomonidan qarz oluvchilarga (tadbirkorlar, davlat, uy xo'jaligi sektori) pul ssudalari shaklida beriladi.

❖ Tijorat krediti — bu korxonalar, birlashmalar va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bir-biriga beradigan kreditlaridir. Tijorat krediti, avvalo, to'lovni kechiktirish yo'li bilan tovar shaklida beriladi.

❖ Davlat krediti-kredit munosabatlarining o'ziga xos shakli bo'lib, bunda davlat pul mablag'lari qarzidori, aholi va xususiy biznes esa kreditorlari bo'lib chiqadi. Davlat krediti mablag'lari manbai bo'lib, davlat qarz obligatsiyalari xizmat qiladi. Davlat kreditning bunday shaklida, avvalo, davlat byudjeti kamomadini qoplash uchun foydalanadi.

❖ Iste'mol kreditlari-mijoz tomonidan ma'lum bir iste'mol tovar va xizmatlari, masalan maishiy texnika, avtotransport sotib olish uchun uy-joyini ta'mirlash, to'y marosimlari, dam olish va davolanish kabilarga yo'naltirilgan qarz mablag'lari olinishi mumkin. Bank bunday resurslarni ma'lum narxda sotib oladi va faoliyatidagi harajatlarni qoplash maqsadida nisbatan balandroq narxda sotadi.

¹ «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi 2019 yil 11 noyabrdagi O'RQ-582-sonli *Qonuni* bo'yicha yangi tahriri

² «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi 2019 yil 5 noyabrdagi O'RQ-580-sonli *Qonuni* bo'yicha yangi tahriri



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th July - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

❖ Xalqaro kredit- ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi harakatini namoyish qiladi. Xalqaro kredit tovar yoki pul (valyuta) shaklida beriladi. Kreditor va qarz oluvchilar banklar, xususiy firmalar, davlat, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar hisoblanadi.

❖ Xo‘jaliklararo kredit - bir korxonaga (muassasa) tomonidan ikkinchisiga beriladi va ularning kapital qurilish, qishloq xo‘jaligi sohalaridagi munosabatlariga, shuningdek, ichki xo‘jalik hisobi bo‘g‘inlari bilan munosabatlariga xizmat qiladi.

Kreditning vujudga kelishi reallikka aylanishi uchun muayyan sharoitlar bo‘lishi zarur. Shu masala bo‘yicha ba‘zi iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan fikrlarni tahlil qilib, iqtisodchilar tomonidan kreditning yuzaga kelishining quyidagi shartlariga ko‘prok e‘tibor berilganini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Kredit munosabat bo‘lishi uchun;

birinchidan, kredit munosabat ishtirokchilari - qarzga beruvchi va qarzga oluvchi - hukukiy jihatdan mustakil subekt bo‘lishi kerak. Mustakil subekt sifatida har ikkala tomon bir-biri bilan o‘zaro aloqalardan kelib chiquvchi majburiyatlarni bajarishini moddiy jihatdan kafolatlay olishi kerak. Majburiyatlarni bajara olish qobiliyatini hisobga olgan holda mustakil hukukiy sub‘ekt sifatida tomonlar itisodiy munosabatga kirishishlari kerak.

ikkinchidan, qarzga beruvchi va qarzga oluvchi manfaatlari bir-biriga mos tushgan taqdirdagina kredit zaruriyatga aylanadi. Bu manfaatlar avvalambor, ob‘ektiv jarayonlar, o‘zaro manfaatlarni takozo etuvchi aniq vaziyat bilan bog‘liq.

Kreditor(qarzga beruvchi) tomonidan pul mablag‘larini qarzgaga berish bo‘yicha, qarzga oluvchi tomonidan esa shu mablag‘larni olish bo‘yicha qiziqish tug‘ilgan taqdirdagina kredit munosabatlari vujudga keladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, kredit xizmatlarining asosiy turlari va ularning oqibatlarini tushunish iste‘molchilar va siyosatchilar uchun juda muhimdir. Moliyaviy ta‘lim iste‘molchilar ongli qarorlar qabul qilish va ularning qarz samarali boshqarish yordam berish uchun ustuvor bo‘lishi kerak. Siyosatchilar sog‘lom kredit bozorini saqlab qolishda qoidalar iste‘molchilarni himoya qilishini ta‘minlashi kerak. Kelajakdagi tadqiqotlar kreditdan foydalanishning moliyaviy farovonlikka uzoq muddatli ta‘siriga va rivojlanayotgan iste‘molchilar ehtiyojlarini qondirish uchun innovatsion kredit mahsulotlarini ishlab chiqishga qaratilishi mumkin.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th July - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Adabiyotlar

1. Abdullaeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2006-y
2. Omonov A.A. Qoraliev T.M. Pul, kredit va banklar. Darslik. TMI.Toshkent – 2012 yil
3. .Imonov O.K. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kredit tizimi va uni takomillashtirish yo‘llari. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasi olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati –Toshkent, 2002. -38 b;
4. Кадиров А.К. Анализ финансово-хозяйственной деятельности банка. – Москва: Вазар-Ферро, 1995. -170 с.
5. Qoraliev T.M. va boshqalar. Xo‘jalik yuritishning hozirgi bosqichida kredit mexanizmi va banklar. –Toshkent, 1991. -80 b
6. Tuxtayev U.A. Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo‘llari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati, - Toshkent, 2007. -20 b.



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

